

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**M.ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA – QURILISH INSTITUTI**

Muxandislik kommunikatsiyalari qurilishi fakulteti

REFERAT

**Mavzu: Shaharsozlik loyihalash tizimi va bosqichlari. Tumanni
rejalashtirishning asosiy masalalari**

**Bajardi: A.Азимова
Tekshirdi: A.Худайбердиев**

SAMARQAND - 2014yil

Mavzu: Shaharsozlik loyihalash tizimi va bosqichlari. Tumanni rejalashtirishning asosiy masalalari

reja:

- 1. Tumanni rejalashtirishda hududning tahlili.**
- 2. Tumanni rejalashtirishning asosiy masalalari**
- 3. Tumanni rejalashtirishning vazifasi**
- 4. Qishloq xo'jalik tumanlar**
- 5. Kurort tumanlar**
- 6. Yirik shaharlar atrof qismi**
- 7. Shaharsozlik loyihalash tizimi va bosqichlari**

Tumanni rejalashtirishda hududning tahlili. Hududni tabiiy shart-sharoitlar bo'yicha baholash. Hududni tahlil qilishning asosiy maqsadlari: undan turli xil sohalarda foydalanishga yaroqliligini aniqlash; shahar qurilishiga, qishloq va o'rmon xo'jaligiga, aholining ommaviy dam olish uchun hududini tarixiy tashkil etishga talablarni aniqlash.

Tabiiy omillarga quydagilar kiradi.

- Hidrogeyolgik shart-sharoitlar;
- Mineral xom-ashyolar resuslari;
- Muhandis –giyoloik shart-sharoitlar;
- Iqlim shat-sharoitlar
- Hidrologik shat-sharoitlar o'simliklar va hayvonat dunyosi;
- Landshaft tavsifi;

Geomorfologik shart-sharoitlar o'rganganda relefning morfologik va morfometrik elementlarga; shaklga, genitik turiga, absolyut va nisbiy balandliklarga, erosiya bo'linish chuqurligi va qalinligi, qiyaliklariga alohida e'tibor beriladi. Topografik, geomorfologik va muhandis-geologik syomkalar materiallari asos boshqa geologiya fanidagi materillardan foydalanadi.

Geologik tuzilishi –hududning neotektonik faolligi va syomkasi, stratigrafik va litologik kompleklarning borligi ular uning tuzilishi yoyilish qonuniyatlari va quvvati nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil uchun tektonik geomofologik, geologik va boshqa geologiya fanidagi materiallardan foydalaniladi.

Gidrogeologik shart-sharoitlarini tahlil qilinganda yer osti suvlarning suv eltuvchi gorizontlar ularning tarqalishi, chuqurligi, suvga to'yinganligi, kimyoviy tarkib va agressivligikabi tavsif beriladi.

Mineral hom-ashyo resurslari sanoat ishlab chiqarish yoki kurot xo'jaligini rivojlantirish bazasi sifatida tavsiflanadi, ularning tarqalish maydonlari esa tarixiy cheklanish sifatida xizmat qiladi. Bunda ishlab bo'lingan maydonlar rekutivatsiya va xo'jalik maqsadlari uchun keyinchalik foydalaniladigan hudular sifatida qaraladi.

Iqlim shart-sharoitlar umumiqlimiy fiziologik-iqlimiy va agroiqlimiy tavsiflarni o'z ichiga oladi.

Umumiy iqlimiy sharoitlarni tavsiflanganda havoning harorati va namligi, yog'ingarchilik, shamollar, quyosh radiatsiyasi, absolute maksimum va minimum haroratlarning yillik amplitudasi, issiq va eng sovuq oylarning o'rtacha harorati, oylik o'rtacha havoning absolyut va nisbiy namliklari to'g'risidagi ko'rsatkichlar keltiradi. Bundan tashqari yilning issiq va sovuq vaqtlarining o'rtacha yog'ingarchilik miqdori, yil davomidagi yog'ingarchilik va qorli kunlar soni qor qoplaminig balandligi shamolning maksimum tezliklari keltiriladi.

Tuproqlar-ularning asosiy turlari va tarqalishi errozion jarayonlar sifat va agroiqtisodiy baholash bilan tavsiflanadi.

O'simlik va hayvonot dunyosi asosiy turlarining tarqalishi o'simlik va hayvonlarning ekologik va sifat xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Landshaftlar-ommaviy dam olish va turizmga estetik va kompozitsion xususiyatlari nuqtai nazaridan mos kelishi bilan hamda ularning antropogen buzilganligi jihatlar bilan tavsiflanadi. Tabiatning bebaho go'shalari sifatida eng qimmatli yoki yovvoyi hayvonlarning jon saqlaydigan landshaftlar aniqlanib keyinchalik qo'riqlanadigan joylarga aylantirish ko'zda tutildi. Hududlarni

baholash asosiy xo'jalik yuritish turlari uchun amalga oshiriladi. Tumanni rejalashtirish tuzilmalarida: shaharsozlik, qishloq, xo'jalik va dam olish; tumanni rejalashtirish loyihalarida esa sanoat va grajdan qurilishi, qishloq va o'rmon xo'jaligi ommaviy dam olish va tabiatni qo'riqlash ishlab chiqildi.

Tumanni rejalashtirishning asosiy masalalari. Tumanni rejalashtirish-iqtisodiy yoki ma'muriy tumanning kompleks hududiy-xo'jalik tuzilishini loyihalash va uning xalq xo'jaligi tarmoqlarini shaharlar va qishloqlarni optimal joylashuvini hamda aholi mehnati dam olishi uchun qulay shart-sharoitni yaratib berishni ta'minlovchi tarixy ta'kidni shakllantirishni ta'minlashdir.

Tumanni rejalashtirishning vazifasi-loyihalanayotgan tumanning hududiy xo'jalik tuzilishini ratsional hal etish ishlab chiqarish shaharsozlik atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy yodgorliklarni aniqlashni ta'minlovchi me'moriy-tarixiy tarkibni va uni funksional qismlarga bo'lishni shakllantirish; bunda tabiiy,iqtisodiy va mehnat resurslaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda tumanni rejalashtirish bo'yicha loyiha ishlarining ikki turi shakllangan:

- *Tumanni rejalashtirish tuzilmasi (sxema)*
- *Tumanni rejalashtirish loyihasi*

Tumanni rejalashtirish tuzilmasi-viloyat, o'lka, avtonom respublikalar uchun bajariladi. 20-30 dan 200-300 ming km/kv gacha hududlarni qamrab olib, miqyosi 1:100000 yoki 1:50000 nisbatida bajariladi.

Tumanni rejalashtirish tuzilmalari va loyihalari buyurmachi tomonidan berilgan loyihalash topshirig'i asosida bajariladi va u chizmalar hamda tushuntirish xatidan iborat bo'ladi.Tumanni rejalashtirish loyihalari takliflari 20-25 yil muddatga ishlanadi va unda ikki bosqich 1-bosqichda hisobga olingan muddat ajratiladi. Tumanni rejalashtirish tuzilmasi va loyihalarining chizma hujjatlariga topografik xaritaga ishlangan loyihaviy tarx va boshqalar kiradi.

Tumanni rejalashtirish qa'tiy ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastavval tumanni rejalashtirish tuzilmasi ishlanadi, unda xalq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini ko'rastiladi; hududlar rejaviy va funksional

tashkil etish asoslanadi; viloyat muhandislik texnik infrotuzilmasini tashkil etish belgilanadi. So'ngra alohida ma'muriy tumanlar uchun tumanni rejalashtirish loyihalari ishlanadi, ularda hududlarni batafsil tahlil qilish asosida sanoat va fuqaro qurilishi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish va dam olish hududlari maydonlari ko'rsatiladi.

Tumanni rejalashtirish tuzilmalari va loyihalarning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin.

- Sanoat tumanlarini rejalashtirish:
- Qishloq ma'muriy tumanlarini rejalashtirish:
- Kurort tumanlari va hududlarni rejalashtirish:
- Yirik shaharlar atrof qismini rejalashtirish:

Sanoat tumanlari. Sanoat iqtisodiy tumanlar shakliga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi,

Sanoat tumanlarini rejalashtirishning asosiy masalalari quyidagi omillarni hisobga olgan holda hududlar tashkil etiladi.

- quvvat va xom ashyo manbalariga yaqinlik;
- mahsulot iste'molchilariga yaqinlik;
- mehnat kadrlari bilan ta'minlanganlik;
- yuk tashishni osonlashtiruvchi qulay transport aloqalari mavjudligi;
- aholi uchun turar joy ish joylar hududlar o'rtasida qulay aloqani ta'minlash;
- shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun shahar atrofi qishloq xo'jalik bazasini tashkil etish;
- atrof-muhit muhofazasi uchun tadbirlar;

Qishloq xo'jalik tumanlar:ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jaligi tumanlarning loyihasi ularni ishlab chiqarish va aholi joylashishi xususiyatlariga bog'liq. Avvalo ushbu qishloq xo'jaligi tumanning yo'nalishi aniqlandi (oziq-ovqat yetishtirildi, bog'dorchilik va h.z). ma'lum miqdorda tabiiy mahsulotlar orqali belgilanadigan yo'nalish yer fondidan samarali foydalanishga yordam beruvchi tuman hududini qismlarga ajratish darajasi chuqurlashdi. Keyingi bosqichda qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab

chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarni sanoatning boshqa tarmoqlari korxonalar bilan kompleks joylashtirish jarayonini amalga oshirildi.

Kurort tumanlar:Rekreatsioon xizmat ko'rsatish va hududning rekreatsioon tashkil etish bilan tumani rejalashtirish shug'ullandi. "Rekreatsioon xizmat ko'rsatish" tushunchasi dam oluvchilar hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha xizmat turlarini o'z ichiga oladi (mehmonxonalar, tomosha ko'rsatish, maishiy,shifobaxsh minerallar va h.z larni o'z ichiga oladi.)

Yirik shaharlar atrof qismi:Aholi joylashishi guruh tizimining asosiy shakllaridan biri shahar aglomeratsiyalaridir. Ular o'zida yirik va katta shaharlar ularga tortuvchi kamroq aholisi bo'lgan shaharlar atrof hududlarini jamlaydi.

Shahar va shahar atrof hududi o'rtasida mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik aloqalar mavjud. Tumanni rejalashtirish asosiy shaharlar va shahr atrofi hududlarining vazifaviy ahamiyati va rivojlanishni ko'rib chiqadi. Tumanning rejalashtirishning bu yo'nalishidagi muhim vazifalaridan biri-markaziy shaharning o'sishini me'yoriy darajada boshqarishiga mos holda hudud xo'jaligi tarmoqlarini kompleks joylashtirish hisoblanadi.

Tumani rejalashtirishning muhim vazifalaridan biri-shahar mikroiklimni yaxshilash va aholining dam olishlari uchun qulay sharoitni yaratish maqsadida markaziy shahar atrofida ko'kalamzorlar halqasini hosil qilishdir. Halqaning bevosita shaharga tegib turuvchi qismi, odatda, qurilmalardan holi bo'ladi va yashil baryer vazifasini bajaradi uydan dam olish joyigacha maksimal 1 soat uzoqlikgacha radiusda shahar aholisining qisqa muddatli ommaviy dam olish joylari tashkil etadi. Ko'kalamzorlar halqasining tashqi hududida uzoq muddatli dam olish joylari-sanatoriyalar, dam olish uylari, sayohat markazlari.

Shaharsozlik loyihalash tizimi va bosqichlari

O'zbekistonda quyidagi loyihalash bosqichlari qabul qilingan:

- shahar rivojlanishining bosh tarxi (shahar rejalashtirish loyihasi) shaharni to'la qamrab oladi. Buning tarkibiga transportni, muhandislik tarmoqlarini, ko'kalamzorlarni va boshqalarini rivojlantirishning shartli chizmalari ham kiradi.Shahar bosh tarxi 20 yil muddatga ishlanadi. M 1;10 000;

- batafsil rejalashtirish loyihasi 7-10 yil muddatda ishlanadi. Tarkibiga shaharning yirik bir qismini (markaz sanoat qismi aholi joylashgan qismi va boshqalar) qamrab oladi. M 1;2 000

- qurilish loyihasi muddati 3-5 yil . Bu shaharning ayrim kichikroq bo'laklarini qamrab oladi (kichik tuman ,maydon, anhor bo'yi, dam olish markazi va boshqalar). M 1;1 000, 1;500.

Shaharsozlik loyihalash tizimi

Masshtab	Loyihalash muddati			
	Qamrab olinadigan hudud	25-30 yil	5-10 yil	2-3 yil
1:50 000	Mamuriy tuman Aglomeratsiya	Tumanni rejalashtirish		
1:25 000	Sanoat tumani Kurort tumani	Shartli chizmasi va tumanni rejalashtirish loyihalari		
1:10 000	Shahar , ishchi qishloq, qishloq aholi yashash joylari	Shahar rejalash loyihasi	Birinchi navbatda qurilishni joylashtirish shartli chizmalari	
1:2000	Shahar tumani turar joy, sanoat , kommunal xo'jalik		Batafsil rejalashtirish loyihasi	Qurilish loyihasi al hida obyektlar qurilish loyihasi

Amalga oshirish-reja va loyihalarni texnik, arxitekturaliy hamda ijtimoiy iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va h.k larda hayotda tadbiq etishdir .

Shaharsozlik loyihalarini ko'p bosqichli ierarxik tuzilish tizimi bu umumiy va uzoq loyihlardan aniq va qisqa davrni qamrab olgan loyihalarga o'tishdir.

Tumanni rejalashtirish tuzilmalari va loyihalari borasida O'zbekistonda olimlar va shaharsoz –loyihachilar birga anchagina ishlar bajarishgan. “O'zbekiston hududida Regional aholi joylashuvi tuzilmasi”, “O'zbekiston tumanlarini rejalashtirish kompleks tuzilmasi”, “Toshkent aglomiratsiyasi tumanni rejalashtirish kompleks tuzilmasi” 2005 –yilda “Toshkent bosh planLITI” tomonidan loyihalangan, “Toshkent viloyati tumanni rejalashtirish sxemasi 2020- yilgacha” va boshqa viloyatlar tumanni rejalashtirish tuzilmasi tomonidan ko'pchilik ma'muriy tumanlarning loyihalari ishlab chiqilgan.

“Toshkent aglomiratsiyasi tumanni rejalashtirish kompleks tuzilmasi” Toshkent vohasini kelajakda rivojlanishi masalalarini kompleks yechish ustidagi birinchi urinish bo'ldi. Bu ishda bajarilgan Toshkent viloyati hududida aholi taqsimlanishi va aholi joylariaro aloqalarning tahlili o'zaro bog'liq aholi joylari guruhlarini, shu jumladan Toshkent aglomiratsiyasini ajratib olish imkonini berdi. Toshkentning rivojlanishini tartibga solishning asosiy konsepsiyasi sifatida Toshkent aholi joylari guruhini rejali boshqariladigan aholi joylashuvi tizimiga aylantirish qabul qilingan. Aholi joylashuvi tizimining demografik sig'imi –6 mln kishi bo'lishi aniqlangan. Tabiat muhofazasi va landshaftlarini qayta tiklash bo'yicha qator tadbirlar ko'zda tutilgan.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Tumanni rejalashtirishda hududning tahlili uchun qanday omillar o'rganib chiqish lozim?
2. Tumanni rejalashtirish tuzilmalari va loyihalarining qanday turlari bor?
3. Hududni tahlil qilishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
4. Tumanni rejalashtirishning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini: 1 qism, darslik / O'zR oiliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi,-

Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 - 160 b.

2. Mirzayev M.K., Latipov D.V. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik asoslari. O'quv qo'llanma. T.2000 TAQI.

3. Mirzayev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. T.2001 TAQI.

4. Isamuhamedova D.U. «Shaharsozlik asoslari». O'quv qo'llanma. T., 2000- u.